O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
ANDIJON VILOYATI
BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li

2026 - yil 30 - iyundagi 287570 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: “Yakka tartibdagi turar joy” bino inshootlarini buzib, o’rniga “O’n ikki qavatli birinchi qavati savdo do’koni va yuqori qavatlari turar joy” bino va inshootlari qurilishi QAYTA EKISPERTIZA QILISH

Buyurtmachi: UMT BUILDING UP MCHJ

Bosh loyihachi: "DREAM REFLECTION" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan

Bosh pudratchi: “UMT BUILDING UP” MChJ

Qurilish turi: Yangi qurilish

Murojaat raqami: 126812

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Marhamat tumani Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 25.02.2025-yildagi №176919832-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 04.03.2025-yildagi №1703-1703227-216243-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Buyurtmachi “UMT BUILDING UP” MChJ tomonidan 2025-yilda tasdiqlangan loyixalash topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi “UMT BUILDING UP” MChJ hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasida 14.03.2025-yilda tuzilgan №2025/L003-sonli loyiha-tadqiqot ishlari uchun shartnoma.

1.5. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 18.04.2025-yildagi №187358427-sonli xulosasi.

1.6. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 26.03.2026-yildagi №01/06-318-sonli xati.

1.7. Andijon viloyati qurilish va uy joy kommunal ho‘jaligi sohasida nazorat qilish inspektsiyasi tomonidan 2025-yil hamda 2026-yil 6-mart va 12-martda berilgan bino va inshootlarni texnik o`rganish va qurilish sinov laboratoriyalari.

1.8. Buyurtmachi “UMT BUILDING UP” MChJning 01.05.2026-yildagi №30-sonli aloqa xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiga ko‘ra “Andijon viloyati Marhamat tumani Mingtepa MFY, Ipak yo’li ko‘chasi xududida “Yakka tartibdagi turar-joy” bino inshootlarini buzib, o’rniga “O’n ikki

qavatli birinchi qavati savdo do’koni va yuqori qavatlari turar-joy” bino-inshootlari qurilishi (Qayta ekspertiza)” obyekti bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarining elektron shakli.

2.2. Muxandislik geologik qidiruv ishlari “GEO VALLEY GOLD” MChJ tomonidan 2026-yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino					
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	12-qavatli turar-joy (A blok)	12	381.94	4678.19	16805.36
Ko'p xonadonli turar joy binosi	12-qavatli turar-joy (B blok)	12	381.94	4678.19	16805.36
Jami:			**763.88**	**9356.38**	**33610.72**

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 16 C li qurilish tumani

Qordan tushadigan yuk -50 kg/mI

Shamolning ta'sir kuchi -38 kg/mI

Yozgi xisobiy xavoning issiqlik xarorati +33 C.

Maydon seysmikligi 8-balli.

3.2. Bosh reja:

Bosh reja bo‘yicha texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar:

1. Hududning umumiy maydoni – 0,32 ga.
2. Qurilish maydoni – 0,17 ga.
3. Yo‘llar, piyodalar yo`lakchasi va qoplamalar – 0,10 ga.
4. Ko‘kalamzorlashtirish maydoni – 0,05 ga.

Marhamat tumani xududida ilova etilgan bosh reja asosida “Yakka tartibdagi turar-joy” bino inshootlarini buzib, o’rniga “O’n ikki qavatli birinchi qavati savdo do’koni va yuqori qavatlari turar-joy” bino va inshootlari Andijon viloyati Marhamat tumani Mingtepa MFY, Ipak yo’li ko‘chasi xududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun Marhamat tumani Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 25.02.2025-yildagi №176919832-sonli ruxsatnomasiga asosan yer uchastkasi ajratildi. Obyekt yer uchastkasi shimol tomondan yo`l bilan, sharq tomondan noturar obyekt hududi bilan, janub tomondan aholi uylari bilan, g`arb tomondan ichki ishlar idorasi hududi bilan chegaralanadi. Bosh rejaga asosan loyihaviy ko`p qavatli turar-joy binosi (A va B blok), loyihaviy 1-qavati avtoturargoh va tom qismi bolalar maydoni binosi, dam olish ayvoni, avtoturargoh, chiqindi yig`ish qutisi, yong`inga qarshi jihozlar qutisi va 120m3 hajmda yong`inga qarshi suv havzasi joylashgan. Bosh reja rel`ef va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan.

Bino va qizil chiziqlarni joyiga bog‘lash.

Binolarni joyiga bog‘lash, loyiha ishlarining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu bosqich bosh rejada loyihalangan barcha bino va inshootlarni, hamda ularni bog‘lab turuvchi ko‘cha va yo‘lkalarni, qurilish jarayonida to‘g‘ri joylashishiga imkon beradi. Joyiga bog‘lash chizmasi M1:500 masshtabda bosh rejada ko‘rsatilgan. Binolarni joyiga bog‘lash, mavjud o‘zgarmas nuqta asosida olingan va masofalar metrda ko‘rsatilgan.

Obodonlashtirish.

Loyihaviy bosh reja bo‘yicha joylashtirilgan turar-joy binolari atrofini obodonlashtirish kiradi. Bosh reja bo‘yicha binolar atrofida joylashtirilgan yo‘l va yo‘lkalar, sport maydonlari, yordamchi binolar hamda avtoturargoxlarni joy-joyiga joylashtirib, atrof ko‘rinishini o’quv sharoitiga moslash kiradi.

Ko‘kalamzorlashtirish.

Loyiha hududni ko‘kalamzorlashtirish qurilishi ishlari amalga oshirilishda muhim vazifani egallaydi. Atrof-muhitga, qurilgan binolarga ko‘rk beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ko‘kalamzorlashtirish deganda asosan past bo‘yli manzarali daraxt va butalardan iborat bo‘lib, bundan tashqari turli-tuman chiroy beradigan gullar ekilgan gulzorlar kiradi. Ko‘kalamzorlar hududga ko‘rkamlik ko‘rinishi berishidan tashqari, u hududni havosini tozalashda muhim ahamiyatga ega. Asosan daraxt va gul ko‘chatlari sharoitga moslashgan, issiq iqlimga chidamli toifalaridan foydalanish talab qilinadi.

Sug‘orish tizimi.

Bosh rejada joylashtirilgan bino va yo‘lkalar bo‘ylab loyihalangan yig‘ma beton holatidagi suv qochirish ariqchalar tashkil qilish kiradi, yo‘l bo‘ylab joylashtirilgan beton ariqchalar yo‘lkalar kesishish joyda d=0,25 metrlik polietilen quvurlardan, yo‘llar kesishish joyida d=0,325 metrlik metall quvurlardan yer ostidan o‘tkazish ko‘zda tutiladi. Ariqchalar turli yo‘nalishda kesishadigan qismida suvni me’yoriy yo‘naltiriladigan moslamalar joylashtirish mo‘ljallangan.

3.3. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

*Loyihaviy “Ko`p qavatli turar-joy (A blok)” binosi* – o`n ikki qavatli, yerto`lali bo'lib, rejadagi o`qlar bo`yicha o`lchamlari 22,2x16,5 metr. Bino yerto`la qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3,3 metr. Bino birinchi qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3,9 metr. Bino ikkinchi va undan yuqori qavatlarining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3,0 metr. Binoning yerto`la qavatida texnik xona, omborxona, yo`lak va zina joylashgan. Binoning birinchi qavatida savdo zali, yo`lak, lift va zina loyihalangan. Binoning 2, 3, 4, 5, 6-qavatlarida 3 hamda 4 xonali yashash honadonlari, 7, 8, 9-qavatlarda 2, 3 honali honadonlar, 10, 11-qavatlarda 3 va 4 honali honadonlar, 12-qavatda 2, 3, 4 honali honadonlar loyihalangan. Binoning yuqori 2 va undan yuqori qavatlarida xoll, balkon, lift va zinapoya bo`lib, 2-xonali 10 ta, 3-xonali 28 ta, 4-xonali 8 ta xonadonlar loyihalangan. Turar-joy binosi jami *46 ta* xonadondan iborat.

Ichki pardoz ishlari – yerto`la, zina va pod`ezd yo`laklari loyiha asosida pudratchi tashkilot tomonidan pardozlanadi. Bunda shift va devor yuzalari quruq gips qorishmasida tekislanib, suvli emulsiya bilan bo`yash kerak. Yashash honadonlarning ichki pardozlash ishlari buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga asosan honadon egalari tomonidan bajariladi.

Pol – yerto`la va birinchi qavat noturar qismi hamda pod`ezd yo`laklarida keramik plitkadan, turar-joy xonalarida esa buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga asosan honadon egalari tomonidan bajariladi.

Eshik – yerto`la, podezdga va honadonga kirish tashqi eshiklari metaldan, balkon eshiklari esa alyumin profildan o`rnatiladi. Deraza va framuga - plastik profildan o`rnatish ko`zda tutilgan. Deraza tokchasining ichki tomoniga PVXdan qoplash kerak.

Tashqi pardoz ishlarida devorlar maxsus “Bazalt” issiqlik saqlovchi plitkalari bilan qoplanib, undan keyin, ustidan “Travertin” dekorativ qorishma bilan pardozlash hisobga olingan. Sokol yuzasi granit bilan qoplash kerak. Me’moriy elementlar “alyukafon” dan metall karkasga dekorativ qoplash yo’li bilan bajariladi.

*Loyihaviy “Ko`p qavatli turar-joy (B blok)” binosi* – o`n ikki qavatli, yerto`lali bo'lib, rejadagi o`qlar bo`yicha o`lchamlari 22,2x16,5 metr. Bino yerto`la qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3,3 metr. Bino birinchi qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3,9 metr. Bino ikkinchi va undan yuqori qavatlarining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3,0 metr. Binoning yerto`la qavatida texnik xona, omborxona, yo`lak va zina joylashgan. Binoning birinchi qavatida savdo zali, yo`lak, lift va zina loyihalangan. Binoning 2, 3, 4, 5, 6-qavatlarida 3 hamda 4 xonali yashash honadonlari, 7, 8, 9-qavatlarda 2, 3 honali honadonlar, 10, 11-qavatlarda 3 va 4 honali honadonlar, 12-qavatda 2, 3, 4 honali honadonlar loyihalangan. Binoning yuqori 2 va undan yuqori qavatlarida xoll, balkon, lift va zinapoya bo`lib, 2-xonali 10 ta, 3-xonali 28 ta, 4-xonali 8 ta xonadonlar loyihalangan. Turar-joy binosi jami *46 ta* xonadondan iborat.

Ichki pardoz ishlari – yerto`la, zina va pod`ezd yo`laklari loyiha asosida pudratchi tashkilot tomonidan pardozlanadi. Bunda shift va devor yuzalari quruq gips qorishmasida tekislanib, suvli emulsiya bilan bo`yash kerak. Yashash honadonlarning ichki pardozlash ishlari buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga asosan honadon egalari tomonidan bajariladi.

Pol – yerto`la va birinchi qavat noturar qismi hamda pod`ezd yo`laklarida keramik plitkadan, turar-joy xonalarida esa buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga asosan honadon egalari tomonidan bajariladi.

Eshik – yerto`la, podezdga va honadonga kirish tashqi eshiklari metaldan, balkon eshiklari esa alyumin profildan o`rnatiladi. Deraza va framuga - plastik profildan o`rnatish ko`zda tutilgan. Deraza tokchasining ichki tomoniga PVXdan qoplash kerak.

Tashqi pardoz ishlarida devorlar maxsus “Bazalt” issiqlik saqlovchi plitkalari bilan qoplanib, undan keyin, ustidan “Travertin” dekorativ qorishma bilan pardozlash hisobga olingan. Sokol yuzasi granit bilan qoplash kerak. Me’moriy elementlar “alyukafon” dan metall karkasga dekorativ qoplash yo’li bilan bajariladi.

Ishchi loyixada, buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan “loyixalash topshirig‘iga” binoan bino “korobka” usulida loyixalangan. Bunga binoan quruvchi tashkiloti tomonidan quyma temir beton ishlari, devor konstruktsiyalarini tiklash, tom qoplamalari ishlarini bajarish, zinapoya kataklarini o'rnatish va quyish, honadonlarga kirish eshiklarini o'rnatish, podyezdga kirish eshiklarini o'rnatish, derazalarni va balkon eshik-derazalarini o'rnatish, honalar ichidagi pol qoplamalarni beton styajkalarini quyish, ichimlik suvi, oqava suv, elektr va gaz ta'minoti tizimlarini har bir honadonga olib kirish, parda devorlarini tiklash, suvoq ishlarini bajarish, tashqi pardozlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi. Qolgan ishlar ya'ni xonadonlar ichki eshiklarini o'rnatish, pol qoplamalarini qoplash, pardozlash ishlarini bajarish, sanitar texnik jixozlarni o'rnatish, elektr jixozlarini o‘rnatish xonadon egalari tomonidan bajarilishi ko‘zda tutilgan.

Binoning konstruktiv yechimlarini xisoblashda PK LIRA-SAPR dasturiy kompleksida xisoblab chiqilgan va ushbu dasturga asosan loyihalash ishlari olib borilgan.

Binoning konstruktiv yechimlari QMQ2.01.03-19 “Zilzilaviy xududlarda qurilish”ning 3.1 jadvali asosida loyihalangan.

Binoning tarkibiy elementlarining qisqacha tavsifi: Poydevor - yaxlit quyma temir-beton poydevordan iborat. Bino devori - gazoblokdan maxsus yelimli qorishma bilan terish orqali armatura to'rlari bilan kuchaytirilsin. Pardevorlar – gazoblokdan tiklanadi. Ustunlar - quyma temir-betondan To'sinlar - quyma temir-betondan. Orayopma - quyma temir-beton plitadan bajariladi. Tomyopma - profil trubadan metall fermalar va bog'lamalardan bajariladi. Tom qismi - metal konstruksiya ustidan profnastil tom qoplamasi qoplanadi. Zina maydoni - quyma temir-betondan tiklanadi. Bikrlik yadrosi - quyma temir-betondan. Otmostka - beton qorishma bilan bajariladi.

Shuning bilan birga, ishchi loyiha-smeta hujjatlarida avtoturargoh, muhandislik tarmoqlari, hududni obodonlashtirish hamda nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyihada;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablari bo`yicha:

- Issiq suv ta’minoti issiqlik punktidan va bino va inshootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari asosida quyosh batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv taminlanishi ko‘zda tutilgan.
- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`niy, quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismiga mineral vata (bazalt) qoplash ko`zda tutilgan.
- Tom issiqlik qatlami – mineral basalt plitadan 100mm qalinlikda yotqiziladi.
- Pol izolyatsiyasi - penopleksdan issiqlik qatlami qoplanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish ob’yektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironlar uchun to`xtash joyi avtoturargox tashkil qilish va maxsus belgilar o`rnatish;
- hududda ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplama qoplash;
- barcha binolarning kirish qismida me`yoriy qiyalikka ega bo`lgan pandus tutqichlari bilan(bolalar maydonchasiga chiqishda ko’tarish moslamasi) rejalashtirish;
- pandus tutqichlari boshlanishida chaqiruv tugmasi, asosi kirish eshigi oldida mnemonik diagramma;
- binoning birinchi qavatiga chiqish uchun ko’tarish moslamasi;
- eshiklar chekkasiga kontrast lenta;
- kirish eshigidagi sariq doira, d=200mm;
- sirpanishga qarshi alyumin profil;
- xona to’g’risida ma’lumot olish taxtasi;
- bino yo’laklarida ogohlantiruvchi va yo’naltiruvchi taktil qoplamalar hamda belgilar o`rnatish ishlari;
- yuqori qavatlarga ko’tarilish uchun lift ko’zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 04.03.2025-yildagi №1703-1703227-216243-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq hal qilinadi:

- Elektr ta'minoti - “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 22.04.2025-yildagi №0322727525-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Suv ta'minoti - “Andijon suvta`minoti” AJ Marhamat tuman filialining 24.04.2025-yildagi №35-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

Binolarga xo‘jalik-ichimlik, oqava suvi, issiq suv ta’minoti va yong‘inga qarshi tarmoqlari loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta’minoti manbai xonalardagi 2 konturli elektr qozonlardan va quyoshli issiq suv kollektorlaridan amalga oshiriladi. Oqova suv tarmog‘i polietilen quvurlardan loyixalangan.

Tashqi elektr ta`minoti:

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 22.04.2026-yildagi № 0322727525. Ulanish nuqtasi 110/10 kV kuchlanishli “Mingtepa” podstansiyasi T-2 dan aloxida zamonaviy yacheyka o’rnatish orqali bajarish ko'zda tutilgan.

Elektr ta`minoti:

Elektr ta'minotining ishonchliligi nuqtai nazaridan turar-joy binosi II toifali iste'molchilarga tegishli.

Hisobiy quvvat - Ph-249.26 kW;

Hisobiy tok - Ih-377.66A;

Kvartiralarning ta'minot liniyalari ko'targichlarining loyihaviy yuklari, shuningdek kirishdagi loyihaviy yuklar SHNQ 2.04.17-2019, 2-jadvalga muvofiq 5-bandning eslatmalarini hisobga olgan holda, har bir xonadonning solishtirma yukiga va kvartiralar soniga qarab belgilanadi. Kirish-tarqatish qurilmasi sifatida 2 dona ВРУ1-13-20УХЛ4, seriyasi qabul qilindi. Turar-joy binosida elektr energiyasini hisobga olish EX-518U tipidagi elektron hisoblagich bilan ta'minlanadi. Umumiy maishiy iste'molchilarni hisobga olish VRU ning kirish tarqatish qurilmasiga o'rnatilgan elektron hisoblagich orqali amalga oshiriladi.

Har bir qavatda o'rnatilgan ShE , EX-18 tipidagi elektr hisoblagichlari va UZO tipidagi himoya uzish qurilmalari bilan birgalikda qavat shiti sifatida qabul qilinadi.

Xonadon shitlari sifatida bir fazali elektron to'xtatuvchilari bo'lgan ShRN tipidagi shitlar qabul qilindi. Xonadon shitlari kvartiralarning koridorlarida o'rnatiladi.

Qavat shitlariga magistral tarmoqni podvaldagi kabel yotqizgichlari va ko'tariluvchi qavslar bo'ylab VVGng kabeli bilan amalga oshiriladi.

Energiya tejamkorlik:

Har bir bino tom qismiga 15 kwt quvvatli quyosh panellari jamkanmasi o’rnatish ko’zda tutilgan.

Yong`in xavfsizligi:

Bosh rejaga ko‘ra 2 ta blodkan iborat 12 qavatli, yerto‘la qavati bo‘lgan turar joy binosi va 50 ta moshinaga mo‘ljallangan 1 qavatli yer usti avtoturargoh qurilishi rejalashtirilgan. Binolar to‘rtburchak shaklda bo‘lib, rejadagi o‘lchamlari blok A, B 16,5 x 22,2 m, balandligi

+38,4 m, (yer sathidan eng yuqori qavatning ochiladigan derazasi (eshigi)ning pastki chegarasigacha).
Ma’lumot uchun:
Binoning balandligi yuqori texnik qavatni hisobga olmagan holda yuqori qavatning joylashish balandligi bilan belgilanadi. Qavatning joylashish balandligi yong‘in o‘chirish mashinalari uchun o‘tish yo‘li sathidan tashqi devordagi ochiladigan deraza (eshik) ning pastki chegarasigacha bo‘lgan masofa bilan belgilanadi (SHNQ 2.01.02-04, 5.13-b.). Binoning yerto‘la qavatida sklad, 1chi qavatida savdo zali, 2-12 qavatlarda yashash kvartiralari, shuningdek hududdagi bolalar o‘yingohi ostida yerosti avtoturargohi joylashtirilgan.
Tomga chiqish ichki umumiy zina katak orqali chiqiladi.
Isitish tizimi markazlashgan qozonlari orqali amalga oshiriladi.
Konstruksiyalarning chegaraviy holatiga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi – I; konstruktiv yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – S0; funksional yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – F1.3 (turar-joy qismi), F3.2 (savdo zali).
Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida quyidagilar ko‘zda tutilgan:
Binolar va inshootlarga o‘tish yo‘llari va kirish yo‘llari me’yorlar talablarida;
evakuatsiya chiqishlarning soni norma talablariga mos;
binoning tashqi (issiqlik izolyasiyasi mineralvata) va ichki devorlari yonmaydigan materiallar
bilan ishlov berilishi;
yerto‘la qavatidan chiqish yo‘li bevosita tashqariga;
yerto‘la qavatda oyna xandaqlar (okna priyamki);
yuqori qavatlardan evakuatsiya tutunlanmaydigan N1 turdagi zina kataklar orqali;
N1 turdagi zina kataklarga kirish va qavatlardan chiqish eshiklari o‘zi bevosita yopiladigan moslama (dovodchik) va zichlagich bilan jihozlangan bo‘lishi;
har bir xonadonda tashqi ochiq balkonlar;
evakuatsiya yo‘llaridagi eshiklarning ochilishi chiqish yo‘nalishiga qaratilgan, o‘zo‘zidan yopiladigan moslama bilan jihozlangan;
liftlardan biri yong‘in-qutqaruv bo‘linmalarini tashish rejimida bo‘lishi;
tomga chiqish ichki zina katagi orqali, tomdagi balandlik farqlarida vertikal narvon-zinapoyalar;
savdo qavatlar yashash qavatlariga chiqadigan umumiy zina kataklardan yong‘inga qarshi devorlar bilan ajratilgan;
xar bir qavatda me’yoriy suv sarfiga ega yong‘in o‘chirish kranlari joylashtirilgan ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti;
shkaflarda nasosni masofadan ishga tushirish uchun “pusk” tugmasi;
suv bosimini ko‘tarib berish uchun yong‘inga qarshi nasos stansiyasi va undan chiqish bevosita tashqariga;
yong‘in o‘chirish texnikasini ulash uchun binodan tashqari (fasad)da tashqaridan boshqariladigan zadvijkali va teskari klapanli D-80 mm quruq quvurlar;
xar bir qavatdan tutunga qarshi shamollatish tizimi va ularning klapanlari;
yong‘in vaqtida lift shaxtasining yuqori qismiga alohida kanal orqali tashqi havo bosimi berish tizimi;

har bir xonada avtomatik yong‘in signalizatsiyasi;
qavatlarda yong‘in vaqtida ovozli xabar berish va evakuatsiyani boshqarish tizimi;
evakuatsiya chiqish joylarda “Chiqish” yozuvli yonuvchan elektron tablo;
tashqi yong‘inni o‘chirish maqsadida maydon ichida yong‘inga qarshi suv hovuzi (120 kub.m).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 18.04.2025-yildagi №187358427-sonli xulosasi.
5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazining Andijon viloyati filiali tomonidan 2025-yil 8-aprel kuni berilgan №01-02/03-3830-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **42 920 809 967** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **763 138 551** so'mga kamaytirilib,
42 157 671 416 so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **35 956 086 981** so'm
Asbob-uskunalar: **1 684 691 069** so'm
QQS: **4 516 893 366** so'm
6.1. Loyixa-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.
6.2. Loyixani ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyixa tashkiloti tomonidan dastlabki loyixa chizmalari va smeta xisob-kitoblari to'g'rilanib qayta to'ldirildi.
6.3. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.
6.4. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning arxitektura va konstruksiya bo'limi, suv ta'minoti va oqava suv echimlari bo'limi, elektr, isitish va shamollatish bo'limi hamda smeta bo'limi yuzasidan berilgan e'tiroz va kamchilliklarni to'liq bartaraf etish lozim.
6.5. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 18.04.2025-yildagi №187358427-sonli xulosasida obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.
6.6. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.
6.7. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.
6.8. Buyurtmachi loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin, obyekt loyixa-smeta xujjatlarini qisqa muddatlarda ko‘rib chiqib, yig‘ma ekspertiza xulosalari taqdim etilishi talab

etilganligi inobatga olib, normativ talablarga mos kelmagan loyixa yechimlarini ShNQ talablariga moslashtirish yoki ShNQ ning o‘sha bandiga tegishli o‘zgarishlar kiritish sharti bilan tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

6.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.12.2021-yildagi “Respublikada ko’kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-46-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020-yildagi 93-sonli qarorlariga qat`iy rioya etilsin.

6.10. Loyihani amalga oshirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli farmoni tegishli bandlari bajarilsin.

6.11. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

6.12. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024 yildagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda loyihalanishi tavsiya etiladi.

6.13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchub ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

6.15. Ekspertiza tomonidan avval taqdim etilgan 29.05.2025-yil kungi №243162-sonli yig‘ma ekspert xulosasi buyurtmachi “UMT BUILDING UP” MChJning 01.05.2026-yildagi №30-sonli aloqa xati hamda 23.05.2026-yildagi №126812-sonli murojaati asosida bekor qilinadi.

6.16. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Andijon viloyati Marhamat tumani Mingtepa MFY, Ipak yo’li ko‘chasi xududida “Yakka tartibdagi turar-joy” bino inshootlarini buzib, o’rniga “O’n ikki qavatli birinchi qavati savdo do’koni va yuqori qavatlari turar-joy” bino-inshootlari qurilishi (qayta ekspertiza)” ob`yetki tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi.

7.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Ishtirokchi ekspertlar: Axmedov Rustambek Xamidovich, Primqulov Raximjon Ibragimjonovich, Abdurashidov Miryusup Kobulovich, Nizomov Raximjon O‘ktam O‘g‘li, Asqarov Otabek Fazlidinovich, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li, Madmarov Baxtiyor Baxodirovich

Bosh ekspert **SADIQOV ALISHER ODILJONOVICH**